

## SUN'IY INTELLEKTNI IJTIMOIIY TARTIBGA SOLISHDA AXLOQ KODEKSINING AHAMIYATI

*Muxtarova Maxliyo Usmonali qizi*  
*Toshkent Davlat Yuridik Universiteti*  
*[makhliyo\\_usmonali@mail.ru](mailto:makhliyo_usmonali@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Maqolada yuridik amaliyotda sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan axloqiy masalalar va ularni tartibga solish jihatlari muhokama qilinadi. Sun'iy intellektning faoliyatida axloqiy qadriyatlarining o'rni, axloqiy nuqtayi nazardan me'yorlashtirish, axloqiy prinsip va qoidalarni ishlab chiqish zarurati asoslantiriladi. Ishda xorijiy davlatlar, shuningdek turli korporatsiyalarning sun'iy intellektdan foydalanish me'yorlari qiyosi tahlil etiladi. Maqolada sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy qadriyatlarining shakllantirish bo'yicha namunaviy axloq kodeksini ishlab chiqish g'oyasi ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, yuridik amaliyot, axloq kodeksi, huquqiy texnologiya, axloq prinsiplari, korporativ normalar.

Sun'iy intellekt texnologiyalari bugungi kunga kelib o'zining eng yuqori darajasiga yetmagan bo'lsada, aksariyat davlatlar sun'iy intellektni amalda qo'llash masalalari tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellektning axloqiy xatti-harakatlari, ijtimoiy hayotdagi "xulqi" masalalari belgilanishi bo'yicha qizg'in muhokamalar davom etmoqda.

2021-yil sentabr oyida Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi IBA (International Bar Association) hisobotini e'lon qildi, unda turli mamlakatlardagi yuridik tashkilotlar o'z yurisdiksiyalarida sun'iy intellekt tizimlarini amaliy qo'llash bo'yicha savollarga javob bergan<sup>1</sup>. Oakalls Consultancy konsalting kompaniyasi prezidenti, ingliz huquqshunosi Treysi Kalvert intellektual tizimlar ishtirok etadigan oltita sohani ajratdi: yuridik amaliyotni avtomatlashtirish, huquqiy prognozlash, huquqiy hujjatlarni loyihalash, huquqiy tadqiqotlar va tahlillar, ovozni aniqlash va robotlashtirilgan aloqa tizimlari (chatbotlar). Sun'iy intellekt tizimlaridan barcha sohalarda foydalanish, chatbotlardan tashqari, SRA (Advokatlarni tartibga solish organi) tomonidan nazorat qilinadi. Shuni ta'kidlashimiz kerakki, ingliz huquqshunosi nuqtai nazaridan sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligining asosiy argumenti, birinchi navbatda, yuridik hujjatlarni qayta ishlash xarajatlarini kamaytirish va advokatlar va mijozlarning vaqtini tejash hisoblanadi. Advokatlik firmalari

<sup>1</sup> Guidelines and Regulations to Provide Insights on Public Policies to Ensure AI's Beneficial Use as a Professional Tool // International Bar Association: the global voice of the legal profession. 2022. 17 June. URL: [https://www.ibanet.org/PPID/Constituent/Multi-displry\\_Pract/anlbs-ai-report](https://www.ibanet.org/PPID/Constituent/Multi-displry_Pract/anlbs-ai-report) (дата обращения: 04.07.2022).

mahsuldorlik va samaradorlik nuqtai nazaridan yuqoriroq darajada faoliyat yuritishi mumkin.

Sun'iy intellektdan foydalangan holda semantik tahlil dasturlari tobora keng tarqalmoqda. Masalan, Leverton dasturiy platformasi shartnomalar matnlarini tahlil qilish va ularni keyinchalik tizimlashtirish maqsadida ulardan asosiy ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Shu bilan birga, dastlabki ma'lumotlar turli shakllarda taqdim etilishi mumkin: qo'lda, bosma, grafik va boshqa shakllarda. Manba ma'lumotlarini tahlil qiladigan sun'iy intellekt vositalariga matnni optik aniqlash algoritmlari, tabiiy tilni qayta ishlash va grammatik sintaksis tuzilishini aniqlash usullari, obrazlarni aniqlash usullari kiradi. Leverton platformasining sun'iy intellekt texnologiyalari ko'chmas mulkni ijaraga berish bo'yicha bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlashni, hisob-kitoblarni solishtirishni, yuridik shaxslarni qayta tashkil etish bilan bog'liq kompleks tekshiruvlarni o'tkazishda shartnomalar tuzish bo'yicha muzokaralarga tayyorgarlik ko'rishda shartnoma matnlarini tahlil qilishni, kompaniyaning ishonchliligini tekshirishni, shartnoma matnlarini tekshirishda normativ talablarga muvofiqligini tekshirishni avtomatlashtirishda qo'llaniladi<sup>2</sup>.

Suniy intellektning axloq kodeksi – ijtimoiy munosabatlarda suniy intellekt texnologiyalarini qo'llanilishi va faoliyatiga oid axloqiy me'yorlarni o'z ichiga oladigan ijtimoiy normalari tizimi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda boshqaruv organlari va tashkilotlar tomonidan tuzilgan axloq kodekslari yoki etik standartlar suniy intellekt sohasini reglamentlash uchun ko'p asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Ammo, fikrimizcha, sun'iy intellektni qo'llash bilan davlat organlari axloqiy xatti-harakatlarida o'ziga xoslik va noyoblik xarakteriga ega bo'lib, bunday vaziyatda sun'iy intellektni tartibga soluvchi alohida axloq kodeksini ishlab chiqish zaruriyati kelib chiqadi.

Ko'pgina mamlakatlarda SI texnologiyalarini tartibga solishda normativ-huquqiy bazani yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Aksariyat hollarda bunday hujjatlar huquqiy norma va prinsiplarni o'z ichiga olishi nazarda tutiladi. Ammo SI texnologiyalarini qo'llash har doim ham huquqiy munosabatlarni o'z ichiga olmasligi, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida foydalanilishini inobatga olgan holda bu borada nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, balki ijtimoiy tartibga solish uchun korporativ normalar, axloq kodekslarini ishlab chiqishni ham inobatga olish lozim.

Yuqorida nazarda tutilayotgan axloq kodeksi nva boshqa korporativ normalarning yaratilishi nafaqat davlat boshqaruv organlari balki xususiy sektor vakillari doirasida ham amalga oshirilishini taqozo etadi.

Shu sababli, xorijiy mamlakatlarning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan namunaviy axloq kodeksi yoki SI foydalanish yo'riqnomalari namuna

<sup>2</sup> Leverton. An MRI software company // URL: <https://leverton.ai/product/#technology> (дата обращения: 04.07.2022).

shaklida ishlab chiqilish holatlarini kuzatish mumkin.

Xususan, 2019-yil 8-aprelda Yevrokomissiya tomonidan e'lon qilingan sun'iy intellekt uchun axloqiy qo'llanmada quyidagi asosiy prinsiplar qayd etiladi<sup>3</sup>.

Jahonning yirik kompyuter texnologiyalari transmilliy korporatsiyasi IBM ham SI qo'llash etikasi bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqqan bo'lib, u "Sun'iy intellekt uchun kundalik etika" deb nomlanadi. Mazkur hujjatda SI ni qo'llashga oid asosiy prinsiplar ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topadi<sup>4</sup>:

- Inson tomonidan boshqarish va nazorat qilish;
- texnik ishonchlilik va xavfsizlik;
- maxfiylik va ma'lumotlarni boshqarish;
- shaffoflik;
- xilma-xillik, kamsitmaslik va adolat;
- jamiyat va atrof-muhit farovonligini ta'minlash;
- javobgarlik.

Yevropa mamlakatlariga o'xshash boshqa bir holatni Yaponiya tajribasida ham kuzatish mumkin. Mamlakat hukumati 2016-yilda sun'iy intellekt texnologiyasi bo'yicha Strategik kengash tuzgan bo'lib, 2017-yilning mart oyida Sun'iy intellekt texnologiyasi strategiyasi shakllantirilgan. Shuningdek, xalqaro munozarani boshlashga qaratilgan sun'iy intellekt tizimlarini tadqiq qilish va rivojlantirish prinsiplari e'lon qilingan. Mazkur hujjat quyidagi prinsiplar tizimini o'z ichiga oladi:

- hamkorlik prinsipi;
- shaffoflik prinsipi;
- boshqarish prinsipi;
- ishonchlilik prinsipi;
- xavfsizlik prinsipi;
- maxfiylik prinsipi;
- axloq prinsipi (inson qadr-qimmati va individual avtonomiyani hurmat qilish);
- foydalanuvchiga yordam berish prinsipi;
- javobgarlik prinsipi<sup>5</sup>.

Xalqaro elektronika korporatsiyasi "Bosch" ham SI dan foydalanishga oid axloq normalarini ishlab chiqqan bo'lib, undan foydalanishning eng asosiy prinsipi sifatida "hayot uchun yaratilganligi" hisoblanadi, bu mohiyatan hayotni yengillashtirish maqsadini ilgari surib, "hayot uchun muammolarni keltirib chiqarmaslik" ma'nosida

<sup>3</sup> Ethics guidelines for trustworthy AI // European Commission: official site. 2019. 8 apr // <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/library/ethics-guidelines-trustworthy-ai>

<sup>4</sup> Everyday Ethics for Artificial Intelligence // 2022, – P. 22. // <https://www.ibm.com/watson/assets/duo/pdf/everydayethics.pdf>

<sup>5</sup> Draft AI R&D Guidelines for International Discussion / The Conference toward AI Network Society (2017). – Ministry of Internal Affairs and Communications (Japan): 2017, – P. 23. // [https://www.soumu.go.jp/main\\_content/000507517.pdf](https://www.soumu.go.jp/main_content/000507517.pdf)

ham qo'llaniladi. Mazkur korporatsiya tomonidan ishlab chiqilgan axloq kodeksida quyidagi korporativ normalar mujassamlashadi:

SI ning qarorlari inson ishtirokisiz qabul qilinmasligi kerak. Aksincha, SI insonlar uchun vosita bo'lishi lozim;

SI xavfsiz va ishonchli bo'lishi lozim;

kompaniyaning asosiy qadriyatlariga muvofiq kelish;

SI dan foydalanishda qonunchilik talablariga to'la rioya qilish<sup>6</sup>.

IBM va Bosch axloqiy prinsiplari tizimlarida, qoida tariqasida, davlat tuzilmalari tomonidan shakllantirilgan axloqiy me'yorlar to'plamidan farqli ravishda ishlab chiqilgan. Hukumatlar tomonidan ishlab chiqilgan axloq kodekslari va namunaviy yo'riqnomalarda keltirilgan "shaffoflik" prinsipi nodavlat sektor tomonidan belgilangan "shaffoflikdan" tubdan farq qiladi. Zero, kompaniyalar tomonidan belgilangan shaffoflikka ko'ra, SI asosida mijozga, balki foydalanuvchilarga, shuningdek, noma'lum shaxslar doirasi taaluqli ma'lumotlarni maxfiyligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada shaffoflik prinsiplarini qo'llash maqsadga muvofiq kelvermaydi. Shunga qaramay, SI ni qo'llashdagi shaffoflik prinsipi tijorat sirlari yoki shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligiga tahdid solmasligi kerak.

Shu o'rinda jahondagi eng yirik SI jamoat birlashmasining axloq kodeksiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, Yaponiya sun'iy intellekt jamiyati (JSAI) 277 ta ilmiy, ta'lim va tijorat tashkilotlarini birlashtirgan bo'lib, quyidagi asosiy axloqiy prinsiplarni belgilab beradi:

- 1) insoniyatga xizmat qilish;
- 2) qonuniylik;
- 3) maxfiylik;
- 4) adolat;
- 5) xavfsizlik;
- 6) halollik;
- 7) javobgarlik;
- 8) jamiyat bilan o'zaro munosabatlar va o'z-o'zini rivojlantirish;
- 9) sun'iy intellekt tomonidan axloqiy me'yorlarga rioya qilish<sup>7</sup>.

Mazkur prinsiplar sun'iy intellekt tizimining o'zi va uning ishlab chiquvchilari va foydalanuvchilari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bu umuman Yaponiya tomonidan qabul qilingan bag'rikenglik modelini aks ettiradi.

Axloqiy qoidalar, ijtimoiy me'yorlarning bir turi sifatida, har doim subyektga qaratilgan, shuning uchun sun'iy intellektning axloqiy me'yorlarga rioya qilish talabi

<sup>6</sup> Ethical Guidelines for Artificial Intelligence // Bosch: official site. 2020. 19 feb. // <https://www.bosch.com/stories/ethical-guidelines-for-artificial-intelligence/>

<sup>7</sup> Boddington P. Towards a Code of Ethics for Artificial Intelligence. Cham: Springer, 2017. P. 4–5.

unga ushbu me'yorlarning obyekti emas, balki subyektning sifatini beradi.

Yevrokomissiya tomonidan belgilangan qoidalarga ko'ra, SI ning texnik, texnologik faoliyati davomidagi "axloqi" avtonom yani o'z-o'zini boshqarish tizimiga asoslangan aniq ko'rsatmalarni o'z ichiga olishi lozimligini qayd etadi<sup>8</sup>. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, SI foydalanish davomida qo'llaniladigan axloq kodeksi yoki namunaviy yo'riqnomalarda quyidagi prinsiplar o'rin olishi taklif etiladi:

inson huquqlarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish, shaxsiy hayot daxlsizligini saqlashga xizmat qilish;

farovonlikka xizmat qilish;

ma'lumotlarni mukammal boshqarish – avtonom va aqlli tizimlarni ishlab chiquvchilar foydalanuvchilarga shaxsiy ma'lumotlarni boshqarish imkoniyatini ta'minlash uchun o'z ma'lumotlariga kirish va xavfsiz tarqatish imkoniyatini o'z ichiga olishi;

samaradorlik – ishlab chiquvchilar va operatorlar tizim samaradorligi va uning maqsadlarga erishish;

javobgarlik – SI ishlab chiqqan yoki undan foydalanayotgan subyektning qat'iy javobgarligini belgilash;

suiiste'mollikka yo'l qo'yilmaslik.

Shu o'rinda, bu boradagi olimlarning fikrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, R.G.Apresyanning qayd etishicha, axloqiy me'yorlarning namunaviy to'plamlari (kodekslari) qat'iy bo'lmasligi lozim. Chunki ular ushbu me'yorlarni bir vaqtning o'zida turli shaxslar, tashkilotlar va davlat hokimiyati organlari tomonidan qo'llanilishi uchun mo'ljallangan<sup>9</sup>.

Albatta, olimning fikrlariga qo'shilgan holda aytish joizki, SI nafaqat davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, balki ko'proq nodavlat sektorida qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Shu tufayli, bu boradagi qat'iy axloqiy meyorlarni ishlab chiqish samarali yechim sifatida qaralmaydi.

Ko'rib chiqilayotgan texnologiya rivojlanishining hozirgi bosqichida axloqiy va huquqiy tartibga solishning to'g'ri obyekti sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish faoliyati hisoblanadi. Shunga ko'ra, yuqorida aytib o'tilganidek, SI o'zini ijtimoiy normalarning ishtirokchisi sifatida ko'rib chiqishga hali juda ertalik qiladi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, SI istiqboli bunday normalarni yaratishni taqozo etadi.

P.M.Morxatning fikricha, SI uchun axloq kodeksi faqat fuqarolik-huquqiy munosabatlarida qo'llash maqsadga muvofiq<sup>10</sup>. Bundan tashqari, huquqiy texnologiya

<sup>8</sup> Ethics guidelines for trustworthy AI // European Commission: official site. 2019. 8 apr. // <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/library/ethics-guidelines-trustworthy-ai>

<sup>9</sup> Апресян Р. Г. Этика: учебник. М.: КНОРУС, 2017. С. 314–317.

<sup>10</sup> Морхат П. М. Правосубъектность искусственного интеллекта в сфере права интеллектуальной

nuqtai nazaridan, hujjat ushbu texnologiya ishtirokchilariga jamoaviy tashqi ta'sir ko'rsatishni talab qiladi, bu ko'plab xalqaro shartnomalar misolida optimal emas: har qanday muhim texnologiyani ishlab chiqish mantig'ida, bir buzuvchi, uning rivojlanishi uchun boshqa vektor o'rnatish uchun yetarlidir. Bizning fikrimizcha, axloqiy va huquqiy tartibga solish "pastdan" amalga oshirilishi lozim.

Bizning fikrimizcha, ishlab chiqilayotgan SI axloq kodeksi nodavlat sektor uchun ishlab chiquvchisi, operatori va foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni korporativ tarzda tartibga solishni nazarda tutishi lozim. Shu bilan birga unda quyidagi tarkibiy birliklar nazarda tutilishi talab etiladi:

I. SI dan foydalanishning umumiy tamoyillari – bu texnologiyaning mohiyatiga asoslangan ontologik va aksiologik mazmun talablari;

II. Qadriyatlar va ijtimoiy integratsiya o'zaro ta'sirni tavsiflovchi me'yorlar;

III. Maxfiylik – sun'iy intellekt tizimlari tomonidan qonun bilan himoyalangan ma'lumotlarni qayta ishlash xavfsizligini ta'minlaydigan normalar;

IV. Samaradorlik mezonlari – bu sun'iy intellekt tizimlarini iqtisodiy va boshqa faoliyatga integratsiya qilish;

V. Javobgarlik – qo'llaniladigan sun'iy intellekt tizimlarining ishlashi natijasida yuzaga keladigan xavflarni va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini baholash masalalariga oid umumiy qoidalar.

VI. Nizolarni hal etish mexanizmi.

Ta'kidlash lozimki, mazmunan olib qaraganda, bunday axloq kodekslarini ishlab chiqishda davlatning majburlov kuchidan ko'ra, rag'batlantirish lementlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Zero, nodavlat sektori musatqillik va o'z-o'zini boshqarish kabi buzilmas prinsiplarga tayanadi.

Mazkur maqolada keltirilgan yondashuvlar, takliflar O'zbekiston Respublikasida istiqbolli yo'nalish sifatida qaralishi, hozirgi vaqt uchun bu takliflar biroz ertalik qilishi tasufli holat. Shunga qaramasdan, axloqiy me'yorlar va qoidalarni yaratish, modernizatsiya qilish va ulardan foydalanish orqali sun'iy intellektga me'yoriy yondashuv yaqin kelajakda jamiyat va davlat oldiga hozirgi paytda qo'yilgan taktik, vaziyatli vazifalarni hal qilish uchun ko'proq mos keladi.

Muxtasar qilganda, SI axloq kodeksi axloqiy prinsip va qadriyatlarga tayanishi, SI bilan aloqaga kiriashigan har qanday shaxsni bilan bo'ladigan munosabatlarda axloqiylikni saqlab qolishiga oid rahbariy g'oyalarni mujassamlashtirish lozim. Bunda SI sohasida rivojlanayotgan texnologiyalarni ishlab chiqish, ularni qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish paytida axloqiy va huquqiy tartibotni ta'minlash maqsadida yaratilishi lozim.

Suniy intellektning ishlashida adolat va barqarorlikni ta'minlash maqsadida,

---

собственности: гражданско–правовые проблемы: дис. . д–ра юрид. наук. М., 2018. 414 с.

barcha insonlarning huquqlarini muhofaza qilish zarurdir. Suniy intellekt tizimlarining foydalanishchilariga adolatli va ishonchli muomala qilish, turli kamsitishlarni oldini olish muhim hisoblanadi.

Suniy intellekt tizimlarining xavfsiz va maxfiy bo'lishi, ma'lumotlarni to'g'ri saqlash, ularga yetkazib berish, va ulardan foydalanish paytida foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash zarurdir.

Suniy intellekt tizimlari odamlarning e'tiqodlarini, madaniyatini va qadriyatlarini hurmat qilishi kerak.

Suniy intellekt tizimlarining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni oshirishda barqarorlikni ta'minlash maqsadida huquqiy, iqtisodiy, va ijtimoiy munosabatlarga ishonch yaratishga zamin tayyorlashi lozim.